



I va II Renessans davrida
Markaziy Osiyolik olimlarining
ilm-fan sohasidagi yutuqlari

2024



“O‘zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg‘onish davriga — Birinchi (ma’rifiy — IX-XII asrlar) va Ikkinchisi (Temuriylar — XIV-XV asrlar) Renessansga beshik bo‘lgan. Bu — jahon ilm-fanida o‘z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir”!

Shavkat Mirziyoyev


RENESSANS NIMA?



“Renessans” so‘zi – “uyg‘onish”, “tiklanish” degan ma’noni anglatadigan fransuzcha so‘zdir.



“Renessans” so‘zi Yevropada XIV-XVI asrlarda paydo bo‘lgan. Buning asosiy sababi Markaziy Osiyo olimlarining ilm-fan sohasida amalga oshirgan tub burulishlari hisoblanadi.


Uyg‘onish davrida ta’lim jonlangan, savdo, san’at, musiqa, adabiyot va fan rivojlangan. Uyg‘onish davri Markaziy Osiyoda tarqalib, so‘ng Yevropaning butun turmush tarzini o‘zgartirgan.



BIRINCHI RENESSANS davri allomalari

IX asrdan to XII
asrgacha Birinchi
Renessans davri olimlari
shakllanib, ularga Beruniy,
Farobi, Al-Farg'oniy,
Ibn Sino, Imom Buxoriy,
Marg'iloni, Ibn Batuta
kabilar kiradi.





AHMAD AL-FARG'ONIY (797-865)

O'rta asrlarda yashagan Markaziy osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik va geograf al-Farg'oniy salmoqli o'rin egallaydi. Olimning to'liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniydir. Manbalarda uning farg'onalik ekanligidan tashqari deyarli boshqa ma'lumotlar saqlanmagan.


Al-Farg'oniyning hayoti haqidagi ma'lumotlar juda kam bo'lganligiga qaramay, o'rta asrlarda Sharqda uning nomi mashhur bo'lgan. Al-Farg'oniyning asosiy astronomik asari "Samoviy harakatlar va umumiyl ilmi nujum kitobi" ("Kitob al-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum") XII asrda Ovro'poda lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Ovro'po tillariga ham tarjima qilinganidan so'ng, uning lotinlashtirilgan nomi "Alfraganus" shaklida G'arbda bir necha asr davomida keng tarqalgan.



ABU NASR FAROBIY (873-950)

To‘liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon – jahon madaniyatiga katta hissa qo‘sghan Markaziy Osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim.

O‘rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog‘liq. Forobiy o‘z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilgan va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo‘sghanligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitgani tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug‘lanib, “Al-muallim as-soniy” – “Ikkinchi muallim” (Aristoteldan keyin), “Sharq Arastusi” deb yuritilgan. Forobiy o‘rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan.




ABU RAYXON BERUNIY (973-1048)

Al Beruniy — Xorazmning buyuk allomasi, tarix, geografiya, filologiya, astronomiya, matematika, geodeziya, mineralogiya, farmakologiya, geologiya va boshqa ko'plab fanlarda oid qomusiy asarlar muallifi. Beruniy O'rta Sharqda ilk bora Yer Quyosh atrofida aylanishi mumkinligini aytib, Yerning aylana o'lchamini aniqlagan.

Beruniyni chinakam o'rta asrlar Sharqining ilm-fan qomusiy olimi desak mubolag'a bo'lmaydi. Amerikalik tarixchi Dj.Sarton buyuk olim haqida: "Astronomiya va matematika, astrologiya va jo'g'rofiya, antropologiya va etnografiya, arxeologiya va falsafa, botanika va minerologiya uning buyuk nomisiz qashshoqlashib qolgan bo'lardi" degan.

Uning to'liq ismi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy. 973-yil 4-sentyabr kuni Xorazmning qadimiy poytaxti Kot shahrida dunyoga kelgan. Beruniy hayotining erta damlari haqida ma'lumot kam, faqat chin yetim bo'lganligi ma'lum. Beruniyning birinchi ustozи astronomiya, matematika va trigonometriya bo'yicha tayanch asarlar muallifi Abu Nasr Mansur ibn Iraq al-Jadiy bo'lgan.




YUSUF XOS HOJIB XI asr

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yo‘llovchi bilim”) asari islomiy turkiy adabiyotni boshlabgina bermay, uni yangi taraqqiyot bosqichiga ham ko‘targan. U nafaqat turkiy xalqlar adabiyoti an’analari, balki qardosh xalqlar, jumladan, forsiy adabiyot tajribalarini ham ijodiy o‘zlashtirgan holda yaratilgan. “Shohnoma” kabi mutaqorib vaznida yozilgan va “Turkiy Shohnoma” nomi bilan shuhrat qozongan (73 bob, 6520 bayt va to‘rtliklardan iborat).

“Qutadg‘u bilig” – XI asr so‘z san’atining nodir namunasi bo‘lib, unda o‘z davrining ilg‘or ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf-odat va an’analari, turmush tarzi, qadriyatlari xususida batafsil ma’lumot berilgan.






Mahmud Koshg'ariy XI asr

- • •
- • •
- • •

Mahmud Koshg'ariy ibn Husayn ibn Muhammad – turkshunoslik ilmining asoschisi, filolog olim. Ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan qoraxoniylar sulolasiga mansub. Qoshg'ariy boshlang'ich ma'lumotni o'z qishlog'ida, yuqori ma'lumotni Koshg'ar madrasalarida olgan, arab, fors, turkiy kabi 7-8 tilni puxta egallagan. So'ng u Buxoro, Samarqand, Marv, Nishapur shaharlarida bilimini oshirgan. 1056–57-yillarda mamlakatdagi ichki nizolar natijasida olim o'z vatanini tark etib, 15 yil davomida atrofdagi qardosh xalqlar orasida yurishga majbur bo'lgan. Ana shu yillarda u turkiy xalqlar yashaydigan o'ikalarni kezib, bu yerlardagi turkiy qabila va urug'lar, ularning kelib chiqishi va nomlanishi, joylashish o'rinnari, urf-odatlari, ayniqsa, til xususiyatlarini sinchiklab o'rgangan. So'ng Bag'dodga borib, ancha vaqt shu shaharda ijod qilgan, xususan, 1072-yil (ba'zi manbalarda — 1074-yil va undan ham keyin) dunyoga mashhur asari “Devon-u lug'otit turk” (“Turkiy so'zlar devoni”)ni yozib bitiradi va uni abbosiylardan bo'lgan Abulqosim Abdulloh binni Muqammadil Muqtado biamrillohga bag'ishlaydi. Ushbu asar turkiy xalqlar tarixidagi dialektologik, izohli, etnografik, tarixiy-etimologik lug'atlarning barcha xususiyatlarini qamrab oluvchi dastlabki universal lug'atdir. Bu asarida olim turkiy qabila va urug'lar (xalqlar) tillaridagi so'zlar ma'nosini arab tilida izohlagan. Misol sifatida esa maqollardan va badiiy adabiyotdan parchalar keltiradi. Qoshg'ariy ushbu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezagan. Shuni aytish kerak-ki, “Devon”da berilgan adabiy parchalar, hikmatli so'zlar, iboralar faqat XI asr adabiyotining namunalari bo'lmay, juda uzoq o'tmish davrlarning mahsulidir.




MAHMUD ZAMAXSHARIY 1075-1144



ZAMAXSHARIY (to‘liq ism-sharifi Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad) (1075, Xorazm, Zamaxshar qishlog‘i – 1144, hoz. Ko‘xna Urganch) – tilshunos, adib, tafsir va hadis olimi. Oilasi islomning mu’tazila ta’limotiga e’tiqod qo‘ygan bo‘lib, Zamaxshariy dunyoqarashi dindor, taqvodor otasining ta’sirida shakllangan, dastlabki bilimini ham o‘z otasidan olgan. Zamaxshariy ilm-fanning turli sohalari, ayniqsa, arab tili va adabiyoti, diniy ilmlar, shuningdek, o‘sha davrda ilm ahli orasida qadrlangan xattotlik san’atini ham mukammal egallaydi. Ustozi – til, lug‘at va adabiyot sohasida mashhur olim Abu Mudar Isfaxoniy (1113- y. Marvda vafot etgan) dan ilm o‘rganadi. Talabalik yoshiga yetgach, bilimini yanada oshirish, har tomonlama kamol topish maqsadida Buxoroga yo‘l oladi. Bu yerda u shayx ul-islom Abumansur Nasr Horisiy, Abu- sa’d Shaqqoniy va Abulxattob ibn Abulbatr kabi olimlardan saboq oladi.

Zamaxshariy arab tili grammatikasi va lug‘atini hamda mahalliy qabilalarning lahjalari, maqollari va urf-odatlarini chuqr o‘rganadi, mintaqa geografiyasiga oid xilma-xil ma'lumotlarni to‘playdi. Zamaxshariy ko‘p asarlarini Makkada yozadi. Shu boisdan u Jorulloh (“Allohning qo‘shnisi”) degan sharaflı unvonga tuyassar bo‘lgan.

Zamaxshariy arab grammatikasi, lug‘atshunuslik, adabiyot, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid 50 dan ortiq asarlar yaratgan. Ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan. Zamaxshariyning “Al- Mufassal” (“Grammatika bo‘yicha mufassal kitob”, 1121) asari arab tili nahv-u sarfini o‘rganishda yirik qo’llanma sifatida azaldan Sharqda ham, G‘arbda ham shuhrat topgan.



IMOM AL-BUXORIY (810-870)

Imom al-Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al Buxoriy) – islom olamingning yirik mutafakkiri. Muhaddislar imomi, hadis ilmining sultonini deb ham yuritiladi.

U 5-6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammadning hadislarini o‘rganishga va yodlashga kirishadi.

Imom Buxoriyning asarlari orasida eng mashhur bo‘lgani „Al-jome’ as-sahih“dir. Bu asar islom olamida Qur’ondan keyingi eng muhim manba sifatida e’zozlanuvchi manba hisoblanadi.

Imom Buxoriyning hadislar to‘plash borasidagi qo‘ygan shartlari boshqa muhaddislarning shartlaridan ko‘ra aniqroq bo‘lgani sababli „Al-jome’ as-sahih“ asari „Eng ishonchli hadislar to‘plagan“ nomiga sazovor bo‘lgan. Muhaddislar hadislarning roviylarini o‘zaro uchrashganlari ehtimoli mavjud bo‘lsa shunga kifoyalanishgan, ammo Imom Buxoriy eshitgan hadislarining roviylari o‘zaro uchrashganini alohida ko‘rgan guvohning e’tirofini ham shart qilib qo‘ygan. Bunday shart boshqa muhaddislarda uchramaydi. Hofiz ibn Xajar al-Asqaloniyning hisobiga ko‘ra „Al-jome’ as-sahih“dagi hadislarning soni 7397 tani tashkil etadi. Bular orasida takrorsizlari 2602 tani tashkil qiladi. Izohlar, roviylarning ixtilofi va ilovalarni qo‘shilsa, kitobda keltirilgan hadislar soni 9082 taga yetadi.





IMOM AT-TERMIZIY (824- 892)

ABU ISO MUHAMMAD TERMIZIY – musulmon olamida mashxur olti muxaddisdan biri. Allomaning yoshlik yillari Termiz shahrida o'tgan, dastlabki ma'lumotni ham shu yerda olgan. U juda ziyrak va qobiliyatli bo'lgan. Termiziy hadis ilmini chuqur egallagan, dunyoviy fanlarga ham qiziqqan. U ko'pgina Sharq mamlakatlarini kezib, mutafakkirlarning bilimlaridan bahramand bo'lgan. Termiziya Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Kutayba ibn Said, Isxoq ibn Muso, Mahmud ibn Xaylon va boshqa mashhur muhaddislar ustozlik qilgan. Termiziy asarlarining aksariyati bizgacha yetib kelgan. "Al- Jome'", "Ash-Shamoyil an-nabaviya", "Al- ilal fil-hadis", "Risola fi-xilof val- jadal", "Attarix", "Kitob az-zuxd", "Kitob ul-asmo val-kuna" kabi asarlar shular jumlasiga kiradi. Termiziyning asarlari ichida eng mashxuri "Al-jome'" bo'lib, oltita ishonchli hadislar to'plamlaridan biridir. Ushbu asar ilmiy adabiyot va manbalarda "Jome' at-Termiziy", "Sunan at-Termiziy" nomi bilan ham atalib, Payg'ambar alayhissalom hayoti va faoliyatiga doir muhim manba hisoblanadi. Termiziyning mashxur asarlaridan yana biri "Ash-shamoyil an-nabaviya" bo'lib, ba'zi manbalarda "Ash-shamoyil an-nabiy salolloxu alayhi vassallam" nomi bilan ham keltiriladi. Bu asar payg'ambar alayhissalomning shaxsiy hayotlari, u kishining surat va siyratlari, ajoyib fazilatlari, odatlariga oid 408 hadisi-sharifni qamrab olgan manbadir. At-Termiziyning asarlari faqat diniy ilmlar majmuasiga oid bo'lib qolmasdan, balki dunyoviy ilmlarga oid ma'lumotlarga ham boydir. Masalan, uning bosh asari bo'lgan "Jome' at-Termiziy"da tarix, mantiq huquqshunoslik, tabobat, ziroatga oid ko'plab qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz. Arab tilini rivojlantirishda at-Termiziyning xizmatlari kattaligi mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan.



XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI

Ma'muniylar akademiyasi – Xorazmda 10-asr oxiri – 11-asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan ilmiy muhit Termiziy Ma'muniylar davlati (992 – 1017) tarixi bilan bevosita bog'liq.

Bu ilmiy muassasada xuddi Afinadagi "Platon", Bag'doddagi "Bayt ul-hikmat" akademiyasi faoliyatiga o'xshab ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan, juda ko'p manbalar to'plangan, tarjimonlik ishlari bajarilgan; hind, yunon, arab olimlarining ishlari o'rganilgan; Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniyarlarning o'lmas asarlari, ilmiy ishlaridan foydalanilgan va tadqiq qilingan.



XVIII-XX asr tarixchi olimlari tomonidan ilmiy muassasa har tomonlama o'rganilgan va o'z faoliyati nuqtai nazaridan bu dargoh o'z davrining akademiyasi bo'lganligi isbotlangan va unga "Ma'mun akademiyasi" nomi berilgan.

Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari Yunoniston, Yaqin va O'rta Sharq, Hindiston ilm-fan yutuqlarini ijodiy, tanqidiy o'rganib, uni yanada yuksak bosqichga ko'targanlar. Akademiya a'zolarining aksariyati olim sifatida Markaziy Osiyoda shakllanganlar.



IKKINCHI RENESSANS davri allomalari



- II Renessans davrida Mirzo Ulug'bek, G'iyoisdin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxon, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod kabi buyuk shaxslar kiradi.





**Amir Temur
(1336-1405)**



“Kuch – adolatda!”

Amir Temur – o'rta asrlarning buyuk turk askari va qo'mondoni, Temuriylar imperiyasi asoschisi, Oltin O'rda, Mamluq sultonligi, Dehli sultonligi, Usmonlilar davlati, Kavkaz va Erondag'i davlatlarning barisini yengishi ortidan musulmon olamining mutloq yetakchisi, 35 yillik boshqaruvi va yurishlari chog'ida biror urushni yutqazmagan qo'shimboshi bo'lgan. U Temuriylar uyg'onish davri yaratuvchisi, ilm-fan, me'morchilik, san'at va adabiyot homiysi hisoblanadi. Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari ham beqiyosdir.

Amir Temurga har bir zafarli voqeа va sevinchli hodisani muhtasham me'morlik obidasi barpo etish bilan nishonlash odат bo'lgan. Amir Temur zabit etgan mamlakatlarning bir qator shaharlari (Bag'dod, Darband, Baylaqon)ni qayta tikladi. Amir Temur Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag'dodda Madrasa, Turkistonda mashhur shayx Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirgan bo'lsa-da, lekin asosiy e'tiborini ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandga qaratdi. Uning “Temur tuzuklari” asari tarixdagi eng nodir asarlardan biri hisoblanadi.



Ikkinchি Renessans davri o'zgarishlari

Fors-islom g'oyalari asosida Temuriylar renessansi quyidagilarni o'z ichiga oladi: Samarcandning qayta qurilishi, Amir Temur tomonidan Temur shaxmatining kashf etilishi, Shohruh Mirzo va rafiqasi Gavhar Shodbegimning Hirotdagi (Italiya madaniy Uyg'onish markazi Florensiyaning raqobatchi sifatida mashhur) hukmronligi, astronom va matematik olim Mirzo Ulug'bek davri, shuningdek, san'at homiysi Husayn Bayqaro tomonidan bir qator o'quv dargohlarining qurilishi. Amir Temur hukmronligi davrida klassik fors san'atiga qiziqish qayta tiklandi. Yirik qurilish loyihalari bo'lmish mavzoley, madrasa va kutubxonalar qurildi. Matematik va astronomik tadqiqotlar o'tkazish qayta tiklandi va XVI asr boshlariga kelganda o'qotar qurollarni o'zlashtirishga ham erishildi.

Ilm olish har bir
muslim va muslima
uchun farzdir!





ABDURAHMON JOMIY
(1414-1492)

Jomiy (Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad) – fors-tojik shoiri, naqshbandiylik tariqatining yirik vakili.

Jomiy Madrasa yoshidan ancha erta Hirotdagi “Dilkash” (Navoiy ma'lumotiga ko'ra, “Nizomiya”) madrasasiga kirib, o‘z davrining taniqli til, adabiyot olimlari va mudarrislari qo‘lida tahsil olgan. Shu davrdayoq u arab tilini mukammal o‘rgana boshlagan. Garchi Jomiyning Navoiydan yoshi ancha ulug‘, rasman pir hisoblansa ham, mohiyatan ular chin do‘sit va hamkor bo‘lganlar. Jomiy o‘zining (“Nafahot ul-uns”, “Bahoriston” va b.) bir qancha asarlarida Navoiyni, Navoiy ham o‘z asarlari (“Xamsat ul-mutahayyirin”, “Majolis un-nafois”)da Jomiyni hurmat bilan tilga oladi.

Jomiy “Nafahot ul-uns” (“Azizlar nafasi”), “Risolayi musiqi” (“Musiqa risolasi”), “Risolayi muammo” (“Muammo risolasi”) kabi o‘ndan ortiq asarini Navoiy maslahati bilan yozgan.

Jomiy vafotidan sal burun lirik she’rlarini 3 devonga: “Fotihat ush-shabob” (“Yoshlikning boshlanishi”), “Vositat ul-ikd” (“O‘rtadagi dўr”) va “Xotimat ul-xayot” (“Hayot xotimasi”) taqsimlagan.



ALISHER NAVOIY (1441– 1501)

Asl ismi Nizomiddin Mir Alisher – buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi, so‘z mulkinining sultonı, yuksak darajadagi pedagogik qarashlar sohibi. Alisher Navoiy 10-12 yoshlaridan she’r yoza boshlagan. Uning she’rlarida axloqiy tarbiya masalalari ustuvor o‘rin egallagan. Shu ma’noda Alisher Navoiydan kelgusi avlodlarga boy pedagogik meros qolgan. Uning “Xamsa”siga kirgan dostonlar – “Hayrat ul-abror” (“Yaxshilar hayrati”), “Farhod va Shirin”, “Sab’ai sayyor” (“Yetti sayyora”), “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy”da barkamol shaxs tarbiyasi asosiy o‘rinda turadi.

Shuningdek, Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” (“Vaznlar o‘lchovi”), “Lison ut-tayr” (“Qushlar tili”), “Muhokamat ul-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”), “Mahbub ul-qulub” (“Qalblar sevgili”), “Xazoyin ul-maoniy” (“Ma’nolar xazinasi”), “Badoe’ ul-bidoya” (“Badiiylik ibtidosi”), “Holoti Sayyid Hasan Ardascher”, “Majolis un-nafois” (“Nafislar majmuasi”), “Nasoyim ul-muhabbat” (“Muhabbat shabadalari”), “Vaqfiya”, “Nazm ul-javohir”, “Tarixi anbiyo va hukamo” (“Payg‘ambarlar va podsholar tarixi”), “Siroj ul-muslimin” (“Musulmonlik nuri”) va boshqa asarlari, ko‘plab hikmatlarida insoniy fazilatlarni ulug‘lagan, unga erishish yo‘llarini ko‘rsatgan. Uning barcha asarlari axloqshunoslik va pedagogikaga oid masalalarini o‘z ichiga olgan. Alisher Navoiy o‘z qarashlarida borliq va uning mohiyati, shaxsning narsa va hodisalarini idrok etish imkoniyatlari, inson va uning jamiyatda tutgan o‘rni, yetuk jamoa, barkamol shaxs, axloq, xulq-odob va ta’lim-tarbiya haqida o‘z davri uchun qimmatli fikrlarni ilgari surgan. U o‘zining tarbiyaviy qarashlarini majoziy, ramziy timsollar orqali ifodalashga harakat qilgan. Uning dunyoqarashi o‘scha davrda Sharqda keng tarqalgan vahdat ul-vujud (borliq va xudoning birligi) ta’limotiga asoslangan edi. Alisher Navoiy talqinida inson boshqa mavjudotlar ichida a’losi, ularning gultojisi hisoblanadi. Zeroki, u sezgi va hissiyotlari orqali tabiat va uning sir-asrorlarini bilishga qodirdir. Alisher Navoiy ayniqsa, inson tafakkuri, aqli va uning bilish qobiliyatiga yuksak baho bergan. U insonning aql-zakovati tabiat va jamiyat hodisalarini idrok qilish, davlatni boshqarish, axloq va ta’lim-tarbiyada faollik ko‘rsatish imkoniyatiga ega, deb hisoblaydi.



MIRZO ULUG'BEK (1394-1449)

Mirzo Muhammad ibn Shohrux ibn Temur Ulug'bek Ko'rragon – Temuriylar davlatining hukmdori, buyuk o'zbek astronomi (yulduzshunos) va matematigi. U otasi Shohrux Mirzo davrida Mavarounnahr hokimi va otasi vafot etgach butun Temuriylar imperiyasi sultonı (1447—1449) bo'ldi. Ulug'bek trigonometriya va sferik geometriya kabi astronomiya bilan bog'liq matematika sohasidagi ishlari, shuningdek, san'at va intellektual faoliyatga umumiyligini qiziqishlari bilan ajralib turardi. Uning hukmronligi davrida temuriylar uyg'onish davrining madaniy cho'qqisiga erishdi. U 1424-1429-yillarda Samarcanda buyuk Ulug'bek rasadxonasini qurdirdi. Olimlar nazarida bu rasadxona o'sha davrda islam olamidagi eng yaxshi, Markaziy Osiyodagi eng yirik rasadxona bo'lgan. Ulug'bek keyinchalik ko'plab olimlar tomonidan XV asrning eng muhim astronomi sifatida tan olingan. U Samarcand va Buxoroda Ulug'bek madrasasini ham (1417-1420) qurdirib, ushbu shaharlarni O'rta Osiyoning madaniy ilm markazlariga aylantirdi.

Ulug'bek ilm-fan olamida buyuk astronom sifatida mashhur. Bu borada u amalga oshirgan eng buyuk ish "Ziji jadidi Ko'ragoniy" deb nomlangan astronomik jadval sanaladi. Ulug'bek tibbiyot va musiqaga ham qiziqqan, she'rlar ham yozgan. Alisher Navoiyning „Majolis un-nafois“ asarida uning she'rlaridan namunalar keltirilgan. Olimdan bizga 4 ta asar meros qolgan: 1) "Ziji jadidi Ko'ragoniy" — astronomiyaga oid; 2) "Bir darajada sinusni aniqlash haqida risola" — matematikaga oid; 3) "Risolayi Ulug'bek" — yulduzlarga bag'ishlangan; 4) „Tarixi arba' ulus“ (To'rt ulus tarixi) — tarixga oid.






ULUG'BEK MADRASASI

Ushbu akademiyada Mirzo Ulug'bek bir necha yuzdan ziyod olimlarni jamlagan. Nomi jahonga mashhur Samarqand rasadxonasi esa ustoz va shogirdlarning koinot sirlarini o'rganish markaziga aylangan. Bundan tashqari Ulug'bekning Buxoro va G'ijduvondagi madrasalari ham poytaxtdagi akademiyaga qarashli zamona dorilfununlari edi.

Ulug'bek madrasasining ikkinchi qavatidagi xonalarda katta kutubxonasi mavjud bo'lgan. Buyuk Amir Temur va farzandlari tomonidan jamlangan kitoblarning ko'pi ana shu yerda saqlangan. Ulug'bek madrasasida barcha diniy va dunyoviy fanlardan chuqr bilim berish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Madrasada ta'lim bergen yuzdan ziyod zamonasining mashhur olimlari ishlashlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Olimlar bilan Ulug'bekning o'zi bevosita suhbat o'tkazgan va ilmiy mukammalligiga ishonch hosil qilgandan so'ng mudarrislikka ruxsat bergen.


Mashhur olimlardan – Mavlono Muhammad Havofiy, Qozizoda Rumiy, G'iyo'siddin Jamshid, Mu'iniddin Koshiy kabilar madrasaning yetakchi olim va mudarrislaridan bo'lishgan. Madrasada boshqa olimlar bilan bir qatorda Ulug'bekning o'zi va shogirdi Ali Qushchi ham turli fanlardan dars bergen.



ULUG'BEK AKADEMIYASI OLIMLARI

Zahiriddin Muhammad Bobur

Shoh shoir shaxsiyatiga xos 7 fazilat – Vatanparvarlik; – Yuksak himmatlilik; – Jasurlik; – Boshqaruvda benazirlik; – Odamlarga farovonlik sog'inish; – Jangchilar ko'ngliga yo'l topish; – Adolat qilmoqlig. Zahiriddin Bobur hikmatlaridan namunalar "Shafqatsiz kishi azobga loyiqidir." "Yaxshi kishilarni Yaratgan yaxshi do'stlar bilan siylaydi." "Ko'pchilik bahodirlar qanchalar kuchli bo'lmasinlar, ular hargiz o'z jahllari va qo'rquvlardan ustun kela olmaydilar." "Ko'nglingni dirlarning muhokama maydoniga aylantirma. Adolat o'rnatishda insonlarning e'tiqodiga chuqur hurmatda bo'l." Mirzo Bobur to'g'risida 6 ta jahonshumul fikr Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mumtoz insonlarni dunyoga bergen xalq hech qachon xor bo'lmaydi, muqarrar tarzda saodatga erishadi.



ALI QUSHCHI

Ali Qushchi (1403-1474) – o'rta osiyolik matematik va astronom. Ulug'bek, al-Koshiy va Qozizoda ar-Rumiylarning shogirdi. Rumiyning o'limidan so'ng Samarqand rasadxonasini boshqargan, "Zidjiy Ko'rag'oniy" yakun topishida ishtirok etgan.

Kamoliddin Behzod

Kamoliddin Behzod (1455 -1535) – 1468 yildan 1506-yilgacha Hirotda ishlagan va Hirotning yirik rassomchilik maktabi ustalaridan biri bo'lgan fors rassom-miniyatyrachisi. G'arbda "Sharq Rafaeli" deb tan olingen.

Qozizoda Rumiy

Qozizoda Rumiy – XV asr boshlarida Movoraunnahrda shuhrat qozongan ulkan matematik va astronomlardan biri. Olimning to'liq nomi Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Mahmud.



ZAHIRIDDIN
MUHAMMAD BOBUR
(1483-1530)

Bobur (taxallusi; to'liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo; — o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shoh bo'lgan.

Bobur o'z davrining buyuk shaxslaridan biri edi. Uning she'rlari, ruboilyari o'z vaqtida va hozir ham sevib o'qilmoqda. Bobur 18-19 yoshlarida ruboy va g'azallar yoza boshlagan. Uning „Topmadim“ radifli g'azali va „Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi“ misrasi bilan boshlanuvchi ruboysi o'sha yillardagi hayoti bilan bog'liq.

Boburning ulkan san'atkorligi shunda-ki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi va natjada asarlarida olg'a surilgan g'oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. Bobur ijodida, xususan, she'riyatida kindik qoni to'kilgan ona yurtini dildan qo'msash, uning tuprog'iga talpinish, g'ariblik azoblaridan o'tli hasrat, yor-u diyor sog'inchi va visol ilinji, taqdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona nosozliklarini qalamga oladi, badiiy tahlil etiladi. Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzusi ham salmoqli o'rincutadi. Uning g'azal va ruboilarida, tuyuq va masnaviyalarida ma'shuqaning maftunkor go'zalligi, beqiyos husn-u latofati, sharqona odob-u axloqi, noz-u karashmasi yengil va o'ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi.

Bobur o‘z she’riy asarlarini to‘plib, devon holiga keltirgan sanani ko‘rsatuvchi aniq tarixiy ma’lumotlar ma’lum emas. Ammo „Boburnoma“ning 1518—1519-yillar voqealari bayoniga bag‘ishlangan faslida Bobur devonini Kobuldan Samarqandga yuborganligi to‘g‘risida so‘z boradi. Demak, shu yillarda uning devoniga tartib berilgan va mazkur devon Movarounnahrda ham tarqalgan.

Hozirda uning 119 g‘azali, bir masnu she’ri, 209 ruboysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit’alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiylajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan.

„Mubayyin“ asari 1521-yil Hindistonga yurishlari davrida Bobur „Mubayyin“ asarini yaratdi. Masnaviy tarzida yozilgan, islam huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag‘ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar ham jamlangan. Valiabd Humoyun va Komron Mirzolarga dasturul-amal sifatida mo‘ljallangan „Mubayyin“da, ayni zamonda, namoz, zakot va haj ziyorati to‘g‘risida ham shar‘iy mezonlar bayon qilingan. Shu yillarda Bobur Sharq she’riyatining asosiy masalalaridan biri aruz vazni, uning nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy risolasini yakunlaydi. Bobur nomini dunyoga mashhur qilgan shoh asari „Boburnoma“ ustidagi ijodiy ishini 1518—19-yillarda boshlagan.

Boburning yuqorida keltirilgan asarlaridan tashqari, „Xatti Boburiy“, shuningdek, musiqa san’ati va harb ishlariga maxsus bag‘ishlangan qator risolalari ham bo‘lgan, ammo keyingi ikki asar matni hanuz topilgan emas. „Xatti Boburiy“da muallif arab alifbosini tahrir etib, yozuvni soddalashtirish va osonlashtirish maqsadida uni turkiy til va talaffuz mezonlariga moslashtirgan.



UCHINCHI RENESSANS – MAKTAB
OSTONASIDAN BOSHLANADI!

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi Renessans" so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda.

"Biz uchinchi Renessans uchun poydevor qo'yayapmiz. Maktablarda zarur sharoitlar yaratilsa, bilim olishda o'zbek bolasidek mehnatkash va sabrlisi jahonning hech yerida yo'q. Uyg'onish davri baribir bo'ladi, o'shanda yangi Ulug'beklar dunyoga keladi..."

Shavkat Mirziyoyev

**E'TIBORINGIZ
UCHUN KATTA
RAHMAT!**